

ERKIN VOHIDOVNING “NIDO” DOSTONIDA TIL VA USLUB MASALASI

Nazim Bo‘ronov

O‘zMU Jurnalistika fakulteti magistratura talabasi

Annotatsiya

O‘zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba’zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o‘rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov “Nido” dostonining til xususiyatlari haqida so‘z boradi. Ushbu maqolaga doir ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib tegishli tahlil va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: doston, til birliklari, adabiy janr, takror so‘zlar, til xususiyatlari.

ERKIN VOKHIDOV'S FRIEND “NIDO” LANGUAGE AND STYLE

Nazim Boronov

Master's student of the Faculty of Journalism of the National University of
Uzbekistan

Annotation

Repetition and its methodological features in Uzbek linguistics have been studied in some literature and some research works. The genre of epics is of special importance in the work of Erkin Vahidov. This article discusses the language features of Erkin Vahidov's epic Nido. The scientific literature on this article is analyzed and relevant analysis and recommendations are given.

Keywords: epic, language units, literary genre, repetition, language features.

So‘zlovchi o‘z hissiyotlarini, emotsiyasini odatdagi tartibga sig‘dira olmagan, odatdagi tuzilish uning sezgi va hissiyotlarini ifoda etish uchun kamday tuyulgan o‘rinlarda miqdor oshiriladi, natijada takror yuzaga keladi. Takror nutqda yuqori

emotsionallikni, me_yordan ortiq his-tuyg‘uni ifodalashga xizmat qiladi. Takror uslubiy vosita sifatida dastlab rus tilshunosligida I.M.Astafyeva, keyinchalik K.B.Bochan kabi olimlarning ishlarida tadqiq etilgan [1, 2]. O‘zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba’zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o‘rganilgan [3; 4; 5; 6; 8]. Takror vositasi juda keng qo‘llanib, uning juda ko‘p ichki turlarini ajratish mumkin. Takror turlari va ularning qo‘llanishiga bag‘ishlangan alohida lug‘at- ma’lumotni ham ko‘rsatish mumkin. X.Sharofiddinovning mazkur risolasida takror bilan bog‘liq 28 ta atamaga ta‘rif berilgan [7]. Tilshunos olim I.Yormatov takrorning til sathlari asosida tahlil qilib, quyidagicha tasnif etadi:

1. Fonetik shakl (ayrim tovushlarning misralararo takroriga asoslanuvchi uslubiy figuralar yig‘indisi. Masalan, alliteratsiya, assonans, monoritm va epifora kabilar).
2. Leksik-morfologik shakl (muayyan so‘zning ikki yoki undan ortiq misralarda atayin takror qo‘llanishi).
3. Sintaktik shakl (tizma matnda so‘z birikmasi va jummalarning takrorlanib kelishiga asoslanuvchi usullar: pleonazm, tautologiya, hojib, refren, naqorat va h.).
4. Logik shakl (qahramonlar va voqealar tasvirida bir fikrning turli shaklda takror ifoda etilishi) [3].

Tilshunoslikda “takror” va “parallelizm” atamalarini o‘zaro almashtirib, sinonim tarzida qo‘llash holatlari kuzatiladi. “Lekin “takror” atamasi keng tushuncha bo‘lib, “parallelizm” hodisasi takrorning bir ko‘rinishidir. Har qanday takror parallelizm bo‘la olmaydi. Biroq shakliy parallelizm hodisasi takror asosiga quriladi” [8].

Erkin Vohidov o‘zining “Nido” dostonida takrorlardan o‘rinli foydalangan. Masalan,
Qadamlar, Qadamlar,
Og‘ir qadamlar...
Etiklar zarbidan titraydi tuproq...
satrlarida aynan takror vositasida badiiylikning yuzaga kelishi, mazmunning muallif ixtiyoridagidek ifoda etishga erishilgan. Erkin Vohidov ijodida el dardi, ozodlik,

mustaqillikka bo‘lgan intilishlari va bevosita o‘z davri bilan muammolari bilan bog‘liq tarzda urush va uning etkazgan jarohatlarini tasvirlovchi asarlar etakchilik qiladi. Xalqning sevimli shoiri o‘z navbatida sezgir til bilimdoni va go‘zal nutq egasi hamdir. Shoirning urush oqibatlarini tasvirlangan “Nido” dostoni til xususiyatlarini asar matnida qo‘llanilgan fe‘lning zamon ko‘rsatkichlari tahlilida ko‘rib o‘tmoqchimiz. O‘tgan zamon qo‘shimchasi -di shakli asar matnida faol qo‘llanilgan:

Otajon!

Men axir qutlug‘ bu so‘zni
Yigirma yil olmadim tilga,
Yigirma yil saqladim tilda.

Yaqin o‘tgan zamon mazmunini hosil qiluvchi ushbu shaklning yigirma yillik vaqt oralig‘i uchun qo‘llanilganligi matnda mazmunning yangi qirrasini, ya‘ni harakat bajaril(ma)ganligi hali uzoq xotiraga aylanmaganligi, uning ayni paytdagi ruhiyatiga yaqinlik mazmunlarini hosil qilgan. Bundan tashqari asar matnida hozirgi zamon mazmunini hosil qiluvchi – yotir (-ayotir) shakllari qo‘llanilishida ham qo‘shimcha uslubiy xususiyatlar mavjud.

Xayolning tumanli pardasi aro
Yillar ko‘z oldimda charx urayotir,
Qishloq ko‘chasida zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir.
Dunyo qayg‘usiga bo‘lmagan oshno
Qah-qahurayotir,
Barq urayotir.
Bilmas boshi uzra bulutli samo
Chaqmoq chaqayotir, Guldurayotir.
Bilmas yaralangan bu majruh dunyo
Qasos so‘rayotir,
Bong urayotir...

Misralarda fe‘llar o‘zaro mos ravishda –yotir zamon qo‘shimchasi yordamida shakllantirilgan. Bu qo‘shimcha tarkibida r tovushining mavjudligi matnda ta’kid,



hayrat va emotsiyaning (-yapti, -moqda shakllariga nisbatan) kuchli ifodalanishiga yordam bergan. Fe'llarning grammatik birikuvli shakllari ham asar matnida o'rinli qo'llanilgan. Misralarda qo'llangan qaytgandi, yig'layveribdi shakllari asar tilining soddaligi, ravonligini ta'minlash bilan birga ta'sir kuchi ortishiga xizmat qilgan. Doston tilida fe'lning buyruq shakli grammatik qo'shimchalaridan ham samarali foydalanilgan. Masalan,

Erni tepma, Asta bos qadam,

Etar uning chekkan ozori.

Matndagi buyruq maylida qo'llanilgan fe'lning ikkinchi shaxs birlik holatida, ya'ni senlash orqali ifoda etilgani asar qahramoni yosh xususiyati bilan birga o'zaro yaqinlik, birgalik mazmunlarini ham ifoda etgan.

Asarning so'nggi baytlarida fe'llarning takror qo'llanilishi uslubiy vazifa bajarib kelgan.

Unutmam! Unutmam!

Unutmam sira Muborak nomlarin

She'rimda aytib.

Misralarda unutmam fe'l grammatikshakli hamda uch karra takrorlanib kelishi fikrning qat'iyiligi va qahramon kayfiyatidagi holatni ifodalab berish uchun xizmat qilgan. Erkin Vohidov asarlari tili o'zining mazmundorligi va serjiloligi bilan birga til vositalaridan foydalanishda katta iste'dod va mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Uning she'rlarida o'zbek qahramoni ruhi, uning nutq shakli, olamni bilish va ifoda tarzi yaqqol sezilib turadi. Uning maktablarini yaratish nafaqat tilshunos, adabiyotshunos yoki tarixchining, balki millat uchun yuragi yongan barcha-barcha insonlarning burchidir. Erkin Vohidov asarlari tilini o'rganish, ularga mehr qo'yish va munosib tarzda tahlil etish orqali o'quvchilarga ularning etib borishini osonlashtirish o'z navbatida tilimiz mustaqilligiga, mafkuramiz mustaqilligiga va avlodlarimiz barhayotligiga ko'mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистическое использование (на материале современного английского языка). – М., 1964.
2. Бочан К.Б. О повторяемости слов и лексических синонимов. – Иркутск. 1965.
3. Doniyorov R. Hamid Olimjon asarlarida takrorlarning qo‘llanishi. O‘zbek tili grammatikasi va dialektologiyasi masalalari. – Samarqand, 1972.
4. Yormatov I. —Alpomishli dostonida so‘z takrori shakllarining qo‘llanilishi. O‘zbek tili va adabiyoti, 1989, 5-son. 53-58-betlar.
5. Mamajonov A. Qo‘shma gap stilistikasi. – T.: Fan, 1990.
6. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi – T.: O‘qituvchi, 1983.

